

**AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY SUG'URTA
TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI****Axunova Nilufar Xusanovna****O'runova Dilrabo Tajieva****Ubaydulloeva Barno Baxtiyarovna**

Tibbiyot hodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi,

"Oliy ma'lumotli tibbiyot hamshiralari" kafedrası assistentlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7733145>

Annotatsiya: Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining deyarli yarmi eng kerakli tibbiy xizmatlar bilan to'liq qamrab olinmagan. 800 milliondan ortiq aholi yoxud dunyo aholisining 12 foizi daromadlarining kamida 10 foizini sog'liqni saqlash xarajatlariga sarflashadi. Bu raqamlarlarni qisqartirishning yaxshi usullaridan biri tibbiy sug'urtaning joriy etilishidir. Ushbu maqolada aholi salomatligini ta'minlashda tibbiy sug'urta tizimining o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy sug'urta, aholi salomatligi kafolati, sug'urta kompaniyasi (fond), insurance mandate.

Texnologik taraqqiyot tibbiyotdagi og'riqli masalalarni hal qilayotgan bo'lsa-da, ko'plab davlatlarda qashshoqlik aholi salomatligi darajasi ko'tarilishiga yo'l qo'ymayapti. Natijada, ochlik va nosog'lom yashash tarzi millionlab odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda. Xo'sh, muammoni bartaraf etish yo'llari bormi? Eng optimal yechimlardan biri majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilishdir. Bunda moliyaviy baquvvat bo'lmagan aholining barcha qatlami ham to'liq tibbiy xizmat bilan qamrab olinadi. Ammo sanoqli rivojlangan davlatlarga ushbu sug'urta turini amaliyotga muvaffaqiyatli kiritgan. Chunki tizimni yo'lga qo'yish uchun tibbiyot butun mamlakat bo'ylab bir xil darajada rivojlangan bo'lishi talab etiladi, bundan tashqari bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy omillar tibbiy sug'urtani amaliyotga tanishtirishga xalaqit qiladi.

Tibbiy sug'urta shunday imkoniyatki, u nafaqat aholi salomatligini kafolatlaydi, balki tibbiyotdagi og'riqli masalalar (tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasi, korrupsiya, byurokratizm, navbatda turish, kadrlar taqchilligi va boshqalar) ni ham ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Tibbiy sug'urtaning maqsadi nima?

Tibbiy sug'urta sohasida dunyo amaliyotida asosan ikki turdagi tibbiy sug'urta: ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta amal qiladi. So'nggi yillarda tibbiy xizmat narxlari qimmatlashib ketayotganligi hech kimga sir emas. Bunday holatda aholining zaif qatlamlarida yuqori malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish



uchun moddiy imkoniyat bo'lmay qolishi mumkin. Majburiy tibbiy sug'urtaning asosiy maqsadlaridan biri ham aynan mana shu muammoni bartaraf etgan holda, tibbiy xizmatlardan foydalanishda barchaga bir xil imkoniyat yaratib berishdir. Majburiy tibbiy sug'urta joriy etilishi tibbiy xizmat sifatini oshishiga olib kelib, o'z navbatida fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini to'laqonli amalga oshirish imkonini beradi. Sodda qilib aytganda, fuqaro sog'lig'i yomonlashib qolgan hollarda tibbiy xizmatlar uchun birdaniga katta miqdordagi mablag'ni to'lay olmaslik xavfini oldini olish uchun majburiy tibbiy sug'urtadan foydalaniladi.

Bunda quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

1. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish majburiy tibbiy sug'urtaga moslashtirilishi, ya'ni davlat tomonidan maxsus sug'urta kompaniyasi (fond)ni tashkil etish;
2. Tibbiy sug'urta kompaniyalari (fondlari) va davolash-profilaktika tashkilotlari o'rtasida munosabatlarni aniq huquqiy tartibga solish;
3. Majburiy tibbiy sug'urta tomonidan qoplanadigan tibbiy xizmatlar ro'yxatini shakllantirish;
4. Shifokorlar fuqarolarni davolashda o'rnatilgan klinik protokollar va standartlarga bir xilda amal qilish;
5. Majburiy tibbiy sug'urta joriy etiladigan aholi qatlamlari va ular to'laydigan pul miqdorini aniq o'rnatishi, shu jumladan imtiyozli aholi qatlamlarini belgilash;
6. Tibbiyot muassasalari va tibbiy sug'urta bozori boshqa ishtirokchilarining elektron hujjat almashinuvini joriy etish;
7. Fuqarolarga majburiy tibbiy sug'urtaning afzalliklari bo'yicha to'g'ri tushuntirish ishlari olib borish.

Hukumat bundan qanchalik manfaatdor?

Majburiy tibbiy sug'urtani joriy etilishi tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi arzonlashuviga olib kelishi sababli davlat budjetidan xarajatlar kamayadi, mazkur sohada yagona tizim yaratilishi oqibatida byurokratizm kamayib, davlat boshqaruvi osonlashadi. Bolalarning sog'lig'iga e'tibor oshishi natijasida ular sog'lom bo'lib o'sishi ta'minlanadi va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xarajatlar oldi olinadi. Hukumat fuqarolarning sog'lig'ini saqlash maqsadida inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sohalarni tartibga solishni kuchaytiradi, (masalan tamaki va alkogol mahsulotlari), natijada mazkur mahsulotlar narxi oshadi.

Xalqaro tajriba





POLAND



POLAND

Rivojlangan 33ta davlatdan 32tasida umumiy majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy qilingan bo'lib, ular quyidagi 3 turdagi majburiy tibbiy sug'urtadan birini qo'llashadi:

1. Yagona to'lov tizimi – davlat sog'liqni saqlash tizim uchun fuqarolardan alohida soliq undiradi. 32ta davlatdan 12tasida bu tizim joriy etilgan (xususan Buyuk Britaniyada).

2. 6ta davlatda esa majburiy sug'urta polisi (insurance mandate) sotib olinadi. Mazkur tizim barcha fuqarolardan ish beruvchi orqali yoki davlatdan majburiy tibbiy sug'urta sotib olishni nazarda tutadi (Germaniyada kuzatiladi).

3. Qolgan 9ta davlatda ikki pog'onali tizim (davlat budjeti va xususiy sug'urta kompaniyalari) joriy etilgan bo'lib, bu tizimda davlat eng asosiy tibbiy xizmatlar uchun fuqarolardan soliq undiradi va bu tibbiy xizmatlarni bepul ta'minlab beradi. Fuqarolar qo'shimcha tibbiy xizmatlar uchun o'zlari mustaqil to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin (Fransiya misolida).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu tizimni joriy qilishdan oldin tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi butun respublika bo'ylab bir xil bo'lishi kerak. Poytaxt fuqarosi bilan chekka qishloq aholisiga teng darajada tibbiy xizmat ko'rsatilishi lozim. Bunga birdan erishish bo'lmaydi va ma'lum vaqt talab qiladi. Rivojlangan davlatlarda ham majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish uchun 20-30 yillab vaqt ketgan. O'zbekiston sharoitida yaqin yillar ichida tizim yo'lga qo'yiladigan bo'lsa, albatta, boshida kamchiliklardan holi bo'lmaydi. Lekin muhim jihati shuki, majburiy tibbiy sug'urta tibbiyot rivoji yo'lida qo'yilgan eng dadil qadam bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 1 apreldagi PQ-2863-sonli qarori.
2. <https://www.project.gov.uz> sayti ma'lumotlari.
3. https://www.norma.uz/nhh_loyihalari/majburiy_tibbiy_sugurta_uch_bosq_ichda_joriy_etiladi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.